

DAMLI CHOLG'UNI O'RGANISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLAR

Normamatov Nodirbek Sheralievich

R.Glier nomidagi Respublika Ixtisoslashtirilgan Musiqa Maktabi

Damli va zarbli cholg'ular bolimi Valtorna sinfi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8020362>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda yurtimizda musiqa madaniyatiga berilayotgan etibor, musiqa san'atining rivojlanishida davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, shuningdek, valtorna musiqa cholg'usini o'qitishda an'anaviy va zamonaviy uslublari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, islohat, cholg'u ijrochiligi, valtorna.

Mamlakatimizda aholining ma'naviy hayotida, shu jumladan, ta'lim va tarbiya masalalari asosida o'quvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish va ularda vatanparvarlik madaniyatini rivojlantirish masalalari Davlatimizning muhim siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmoni, 2017 yil 17 noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son, Mamlakatimiz madaniy faoliyatida yana bir ulkan yangilik bo'ldiki, bu ham bo'lsa "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi fikrimiz dalili sifatida izohlanadi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev madaniyatimizga bo'lgan cheksiz hurmati va sadoqatini isboti sifatida 2022-yil 2-fevral kuni tasdiqlangan PQ 112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorida aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plami va o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi ishlab chiqildi.

Qaror ijrosini amalda qo'llayotgan pedagog ustozlar o'quv muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning san'at va musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, sohada yangi iste'dodlarni kashf etish va yoshlarning ijodiy faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, musiqa to'garaklari tashkil qilinib, unda o'quvchilar darslardan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqdalar, to'garakda o'quvchilar turli musiqa cholg'ularini mahorat bilan chalish, milliy va zamonaviy kuy-qo'shiqlarni ijro etish sir-asrirlarini o'rganmoqdalar.

Texnikaviy rivoj bosimida jadallashib borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda. Shu sababli asrlar davomida

ota-bobomizdan bizgacha yetib kelgan musiqiy madaniyatimizni asragan, an'anaviy qo'shiqchilik va milliy musiqa boyligimizdan foydalangan holda bugungi zamon ruhiga mos musiqalar yaratish, jahon klassik musiqa san'atidan unumli foydalanish, milliy estrada ruhida qo'shiqlar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, maqom san'ati, cholg'u ijrochiligiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Orkestr va ansambl jamoalari sonining kundan-kunga ortib borishi ham cholg'u ijrochiligiga qaratilayotgan e'tiborning yaqqol dalilidir. Bugungi kunda talaygina orkestr va ansambl jamoalari o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

O'zbekiston musiqa madaniyatida damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi o'ziga xos o'rin tutadi. Ushbu yo'nalish boshqa ijrochilik turlariga qaraganda nisbatan kechroq rivojlanish bosqichini boshidan o'tkazgan bo'lsa ham, kelgusida ular bilan tenglashib hozirgi vaqtda o'z professional mavqeyiga ega bo'lgan va zamon talablariga har tomonlama javob beradigan darajaga erishdi. Biroq cholg'ularga doir ilmiy ishlar, darslik va manbalarning kamligi hali ham muammoligicha qolmoqda.

Musiqa (yun. mousiche — muzalar san'ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

O'quvchi yoshlarni musiqiy ta'limda cholg'u ijrochiligiga qiziqtirish to'g'risida fikr yuritishdan avval, musiqa cholg'ulari haqida to'xtalib o'tsak. Musiqiy cholg'ular -musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqa cholg'ularining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazon, tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'ular sadosining sifati ko'pincha muayyan cholg'uning shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatiladigan homashyosiga bog'liq.

Musiqa cholg'ulari qadimda qamish, bambuk, yog'och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong'og'i, qovoq va boshqa homashyolardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qo'shimcha vositalar, ijrochilik uslublari (masalan, torli sozlarni tirnab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), ba'zi musiqa bezaklari yordamida o'zgartirish mumkin. Uning paydo bo'lishi insoniyat tarixining ilk davrlariga to'g'ri keladi, rivojlanish jarayoni esa musiqa san'ati va ijrochilikning rivojlanishi hamda musiqa cholg'ularini ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti

bilan bog'liq. Musiqa cholg'ulari tovush manbai va tovush hosil qilishi bo'yicha guruhchalarga bo'linadi. Biz quyida damli va zarbli cholg'ular guruhi haqida qisqacha to'xtalsak:

- tilchali cholg'ular (surnay, qo'shnay, bo'lamon, shoxnay, klarnet, goboy va boshqalar);
- tilchasiz cholg'ular (naylar, fleytalar);
- mundshtukli cholg'ular (truba, valtorna, tuba, karnay va boshqalar);
- pnevmatik klavishli cholg'ular (organ va uning turlari).

An'anaviy metodlarga ko'ra, cholg'uda ijro etishni o'rgatishdan avval, uni ko'rsatib tanishtirishi kerak. O'quvchilarni avvalo cholg'u bilan yaqindan tanishtirish va ularda qiziqish uyg'otish lozim. Shundan so'ng chalinadigan musiqiy asar bilan tanishtiriladi va o'qituvchi tomonidan bir necha marta ijro qilinib beriladi. O'quvchilarda tushunchalar hosil qilinadi. Avvaliga chapak, og'izda tovushlarni chiqarish yordamida kuyni taktlarga bo'lib ijro qilinadi. Asta sekin musiqiy cholg'u asbobida taktlarga bo'lib o'rganiladi.

O'quvchilar qanchalik cholg'u haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lsa, chalishni istagan yoki tanlangan cholg'u asbobi haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni bilsa, cholg'u asbobini chalgan insonlar hayoti va muvaffaqiyatlari haqida tushunchalarga ega bo'lsa, qiziqishi yanada ortadi va cholg'uni o'rganish davomidagi qiyinchiliklarga ham chidamli bo'ladi. Bugungi kunda o'quvchilarga an'anaviy metodlarga qo'shimcha zamonaviy metodlardan ham foydalanib, zamon talablari bilan hamnafaslikda o'rgatilmoqda.

Zamonaviy metodlarda o'quvchilarga asbobni nafaqat jonli chalib balki multimedialar yordamida ham na'munalar ko'rsatish orqali ham ifodalanmoqda. Bundan tashqari chalinadigan cholg'uga zamonaviy usullar berish orqali qiziqtirilib o'rgatilmoqda. Shundan so'ng musiqiy asar bilan tanishtirilib taktlarga bo'lib o'rgatiladi. Bolalar cholg'u asboblariida jo'r bo'lish eng qiziqarli mashg'ulotdir, chunki bolalar cholg'u asboblari jonli, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Bolalar cholg'u asboblari birinchi navbatda o'quvchilarda ijrochilik elementlar orqali ijodkorlik, musiqiy uquv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

References:

1. B.Salixov, B.Matyoqubov "O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi tarixi" (Toshkent-2007);
2. Salixov B., Matyoqubov B. O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi tarixi. –T., 2007.
3. B.Matyoqubov-"Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati" (Toshkent-2008);
4. R.M.Petrov, B.Matyoqubov "Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish" (Toshkent-2006);
5. Nigmatov R. Damli cholg'ular ansambllari. –T., 2012 (qo'lyozma).
6. R.Nigmatov-"Damli cholg'ular ansambllari" (Toshkent-2013);